

kompetentlikni rivojlantirish uchun mashqlar bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish zamonaviy boshlang‘ich ta‘limning zarur metodik shartidir.

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida leksikografik kompetentlikni rivojlantirish tasodifiy emas, balki maxsus tashkil etilgan mashqlar tizimi asosida amalga oshirilgandagina barqaror samara berishini ko‘rsatdi. Lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasi alifbo va izohni bilish bilangina cheklanmay, ma‘noni tanlash, kontekstni tahlil qilish, grammatik va uslubiy ko‘rsatkichlarni anglash hamda topilgan ma‘lumotni nutqda qo‘llashni qamrab oladi. Shu sababli boshlang‘ich ta‘limda leksikografik kompetentlikni rivojlantirish ona tili darslarining mazmuniy markazlaridan biri sifatida tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchining o‘qish savodxonligi, yozma nutqi va mustaqil fikrlashini bir vaqtda rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashev N., Rahmatullayeva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi: ma‘ruzalar matni. II qism. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2009. – 30 b.
2. Campoy-Cubillo M. Assessing dictionary skills // *Lexicography*. – 2015. – Vol. 2, № 1. – P. 119–141. – DOI: 10.1007/s40607-015-0019-2.
3. Lew R., Galas K. Can Dictionary Skills Be Taught? The Effectiveness of Lexicographic Training for Primary-School-Level Polish Learners of English // *Proceedings of the XIII EURALEX International Congress*. – Barcelona: Universitat Pompeu Fabra, 2008. – P. 1273–1285.
4. Khuskivadze E. Developing Dictionary Skills in English Language Learners (Polysemy, Conversion) // *International Journal of Multilingual Education*. – 2024. – № 26. – P. 62–73.
5. Ezech N.G., Anyanwu E.C., Onunkwo C.M. Dictionary as an Effective Resource in Teaching and Learning of English as a Second Language: Complementing Instructions // *English Language Teaching*. – 2022. – Vol. 15, № 4. – P. 108–116.

ARABIZMLARNING INGLIZ TILIDA SO‘Z YASALISH VA KONVERSIYA JARAYONIDAGI O‘RNI

Uzoqboyeva Ra‘no Anvarjon qizi

ranoanvarovna98@gmail.com

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi arabiy o‘zlashmalarning so‘z yasash tizimidagi o‘rni, xususan qo‘shma so‘zlar hosil qilish va konversiya jarayonidagi faolligi tahlil qilinadi.

Arabizmlarning leksik birlik sifatida emas, balki murakkab birliklar tarkibida ham faol qo‘llanishi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. arabizmlar, so‘z yasash, qo‘shma so‘zlar, konversiya, ingliz tili, leksik tizim, morfologiya

Kirish. So‘z yasash til tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u mavjud birliklar asosida yangi so‘zlarni hosil qilishga xizmat qiladi. T.S. Bochkaryeva ta’kidlaganidek, so‘z yasash – bu til tizimidagi birliklar yordamida yangi leksik birliklarni yaratish qoidalari va usullari majmuasidir [1].

Zamonaviy ingliz tilida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar nafaqat mustaqil birlik sifatida, balki murakkab (qo‘shma) so‘zlar tarkibida ham faol qo‘llanadi. Bu esa ularning til tizimiga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Qo‘shma so‘z yasashda arabizmlarning ishtiroki

Qo‘shma so‘z yasash jarayoni ikki yoki undan ortiq leksik asosni birlashtirish orqali yangi ma’no hosil qilishga asoslanadi [2]. Ingliz tilida arabiy o‘zlashmalar asosida hosil bo‘lgan ko‘plab murakkab birliklar mavjud.

Masalan: *Islamophobia* (Islam + phobia), *Quran-based* (Quran + based).

Arabizmlar ishtirokidagi qo‘shma so‘zlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Qo‘shma otlar

- *alcohol thermometer* – ilmiy asbob
- *divan-bed* – mebel turi
- *candyfloss* – shakar mahsuloti
- *coffee-grinder, coffee-table, coffeepot*
- *cotton-plant, cotton-mill, cotton-picker*
- *zero-gravity* – tortish kuchisiz holat

2. Qo‘shma sifatlar

- *hazard-free* – xavfsiz
- *alcohol-free, low-alcohol* – spirtsiz yoki past spirtli

3. Sifatdosh shakllar

- *cotton-picking* – paxta yig‘ish bilan bog‘liq
- *candy-striped* – chiziqli shaklda

Mazkur misollar arabizmlarning ingliz tilida faqat oddiy so‘z sifatida emas, balki murakkab birliklarning tarkibiy qismi sifatida ham faol ishlatilishini ko‘rsatadi. Bu esa ularning semantik va funksional jihatdan boy imkoniyatlarga ega ekanini bildiradi.

Arabizmlar va konversiya jarayoni

O‘zlashmalar ingliz tilining konversiya asosidagi so‘z yasash tizimida ham faol qatnashadi. Konversiya – bu so‘zning shaklini o‘zgartirmagan holda uning grammatik turkumini o‘zgartirish jarayonidir.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, konversiya zamonaviy ingliz tilida asosiy so‘z yasash usullaridan biri hisoblanadi [3]. Shuningdek, chet tillardan kirgan so‘zlarning fe’lga aylanishi ularning til tizimiga to‘liq moslashganini ko‘rsatadi [4].

Ot shakli (n.)	Fe’l shakli (v.)	Ma’nosi
cipher	to cipher	hisob-kitob qilmoq; shifrlamoq
mask	to mask	niqoblamoq; yashirmoq
mummy	to mummy	mumiyolamoq; qurimoq
tariff	to tariff	baholamoq; tarifga kiritmoq
amber	to amber	qahrabo rang berish
magazine	to magazine	zaxira qilish, saqlash

Ba’zi hollarda semantik kengayish kuzatiladi:

- *cotton* → *to cotton* – yoqtirmoq, yaqinlashmoq
- *mask* → *to mask* – yashirmoq (ko‘chma ma’noda)
- *checkmate* → *to checkmate* – to‘liq mag‘lub etmoq

Bu holat arabizmlarning ingliz tilida chuqur semantik transformatsiyaga uchrashini ko‘rsatadi.

Ot shakli (n.)	Sifat shakli (adj.)	Ma’nosi
tabby	Tabby	chiziqli, rangi chiziqli- chiziqli bo‘lgan
adobe	Adobe	g‘ishtdan qurilgan, loy g‘ishtli
amber	Amber	qahrabo rangli
alkali	Alkali	ishqoriy, achchiq
cotton	Cotton	paxtali, paxtadan tikilgan

Bu shakllar *cotton fabric*, *amber glass*, *alkali solution* kabi birikmalarda keng qo‘llanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, texnologik rivojlanish natijasida tilga kirib kelayotgan yangi birliklarning katta qismi aynan konversiya orqali shakllanadi [5]. Bu holat arabiy o‘zlashmalar misolida ham o‘z tasdig‘ini topadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arabizmlar ingliz tilida so‘z yasash jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular qo‘shma so‘zlar hosil qilishda ham, konversiya jarayonida ham faol ishtirok etadi.

Arabiy o‘zlashmalar nafaqat leksik boylikni oshiradi, balki ingliz tilining morfologik va semantik rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa tillararo aloqalarning lingvistik tizimga qanchalik chuqur ta‘sir qilishini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бочкарева Т. С., Мороз В. В. Основы теории изучаемого языка. Теоретическая грамматика английского языка. Лексикология. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2004. – С. 66.
2. What is word formation? // BBC Bitesize [Elektron resurs]. – URL: <https://www.bbc.co.uk/bitesize/articles/zcy2dp3> (murojaat qilingan sana: 17.07.2025).
3. Galstyan A. Conversion in the Process of Assimilation of Loan-Words // Armenian Folia Anglistika. – 2006. – T. 2. – № 1–2. – С. 51.
4. Trnka B. Conversion in English // Brno Studies in English. – 1969. – Vol. 8. – № 1. – P. 186.
5. Махрова Н. Н., Урядова А. В. Исследование конверсии в английском языке // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. – 2021. – № 5. – С. 69–79.

“BOBURNOMA” ASARIDAGI GIDRONIMIK INDIKATORLARNING TARQALISH AREALLARI VA LINGVOGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Jalilova Madina Murotovna

*NamDU 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi
90 740 43 53 Ganievkomilzon073@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi gidronimik indikatorlarning tarqalish areallari va lingvogeografik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: gidronim, oykonim, indikator, variant, areal, sotsiolingvistika, lingvogeografiya, dialektologiya.

Аннотация. В статье исследуются ареалы распространения и лингвистические характеристики гидронимических показателей в произведении Захириддина Мухаммада Бабура “Бобурное”.

Ключевые слова: гидроним, ойконим, индикатор, вариант, ареал, социолингвистическа, лингвогеография, диалектология.